Niderlandiyaning burjuaziya rivojlanishi XV asrning birinchi o`n yilligi davomida ijtimoiy fikrning rivojlanishiga rdam berdi. Dastlab Germaniyada, balki keyin Niderlandiyada ham g`alabaga erishgan Reformatsiya amaliy qarash ruhidagi kal`vinizmning tarqalishiga sababchi bo`ldi. Uyg`onish davrining buyuk mutafakkiri va gumanisti Erazm Rotterdamskiyning falsafiy va adabyuyi mehnatlari, ayniqsa uning o`ziga zamondosh jamiyatning xulq-atvorlari va buzuqchiliklari ustidan kulish bilan qaragan «Ahmoqlikni maqtash» satirasi, yozuvchining o`zining Reformatsiyani qabul etmaganligiga va diniy fanatizmga qarshi yaiqkanligiga qaramasdan, dunyoga yangicha qarashning tarqalishiga yordam berdi.

Albatta, Niderlandiyaning ijtimoiy hayotidagi qiyin jarayonlar rangtasvirning rivojlanishiga ham ta`sir ko`rsatkanligi tabiiy. Ispan ezuvchiligining kuchayishi ham badiiy san`atga bevosita ta`sir etdi, va natijada shaxsning va uning faoliyatining ahamiyatsizligi haqida o`y tug`dirgan, qiyin kelishmovchiliklarning keskinlashishi keltirib chiqardi. Natijada XV asr badiiy san`atning asoslari birato`la yo`qotildi. Shuning bilan birga Niderlandiya rassomlarining ijodkorligi borgan sari ko`proq odamlar ommasini tasvirlashga yo`naltirila boshladi. Bu qarashdan, uni xalq kuychisi deb atashga bo`ladigan, Mujitskiy (Dehqon) laqabli Katta Piter Breygelning (1525(?)-1569) ishlari ko`proq darajada atoqli. Uning kartinalari, XVI asrning o`rtalaridagi Niderlandiya xalqini ng hayot tarzini va urf-odatlarini sifatldovchi boy materiallarga ega. Dunyoda azaldan bor bo`lgan yaxshilik va yovuzlik asoslar haqida tushuncha, shuning bilan birga, hayotning har qanday, hattooki eng kichkina ko`rinishlarida ham, ular ega bo`lgan chuqur, yuqori ma`noni ko`ra bilish odati Breygelning dunyoni tushunishining farqini tashkil qildi.

Uch kartinaning barchasida ham qanday bir sabab bilan bog'liq bo'lganday-ko'p sonli oshiqib yurgan mayda figuralar – odamlar ommasini: odamlar uylarning orasidan u yoqqa- bu yoqqa yuradi, eshiklardan chiqadi, derazalardan qaraydi, bir narsalarni olib yuradi, birovlariga cho'zadi, qo'llarini siltaydi. Kartinada «yashayotgan» qatnashuvchilar qanday bir butunlikni tashkil qilmaydi, balki boshqalar bilan ishi yo`q bir-biriga beparvo odamlar guruhini tashkil qiladi. Ularning ko`rinishi – bu «noto`g`ri ag`darilgan dunyo» qonunlari bo`yicha yashayotgan insonlarning ko`rinidi. Ularga ahmoqlik, essiz ko`ngillilik, diqqatini jamlash, biroq ma`nosizlik tamg`asi bosilgan. Ularning ko`ngilli va ma`nosiz tomoshalari – bu butun insoniyat avlodining shunday bema`ni ishlarining belgisi.

«Aqlsiz Greta» va «Ajal saltanati» kartinalarida, «noto`g`ri ag`darilgan dunyo» g`oyasi asos qilib olingan asmarlar qatoriga kiradi. Biroq bu polotnolarda u hayotda bo`lmaydigan, fantasmagoriyali obrazlarda tasvirlangan.

«Aqlsiz Greta» va «Ajal saltanati», Ispanlarning Niderlandiyadagi ezuvchiligi eng yuqori chegarasiga etgan va o`lim jazosi davlat tarixida hech qachon bo`lmagan darajada ko`p amalga oshirilgan, rassomga zamondosh davrdagi hayotning qayg`uliligini, qo`rqinchli haqiqat bilan ifodalanadi. Breygelning ruhiy holatining qayg`uliligi bu kartinalarda juda aniq ifodasini topgan. Ulardagi barcha ko`rinishlar – aqlsizlik va yovuzlik: skeletlar odamlarni o`ltirayotgan, balki odamlar bo`lsa, katta qalqon turidagi belgili solingan sichqon qoqponining boshpana topishga bekorga urinadi; zehnalikning timsoli bo`lgan aqlsiz Greta boshqalardan tortib olgan boyligini yashirish uchun oldi-ortiga qaramay yuguradi va to`g`ri do`zaxga qarab yo`l oladi; ikki dinsli maston o`zining iflosliklarni sig`ib olib tashlayotib, balki odamlar bo`lsa uni oltin deb o`ylab, bir-birining ustidan unga bo`yini tashlab, talashmoqda. [II.8,12-56]

«To`nkarilgan dunyo» g`oyasiga asoslangan kartinalar seriyasiga Breygelning ijodidagi yangi mavzuni: mangu kezib, mangu izlanib yurgan, biroq, gnohli, nohaq tilaklar izidan insoniya mavzusini ifodalovchi, taurat syujetlarga ishlangan peyzaj-janr sifatidagi polotnolar uyg`un. Bu, «Bobil minori», «Qalqonni olib

yurish», «Cho`qintiruvchi Ioanning diniy nasihat berishi», «Vifleemdagi xalqni hisobga olish», «Go`daklarning qirib tashlanishi» kartinalari. Kompozitsiyalar rassomning o`zi yaxshi ko`raligan landshaft panoramaning ichiga, ko`ke jiyakning yuqorgi chizig`idan, din osmondan, «qush uchgan balandlikdan» ko`ringanday qilib joylashtirilgan.

Bu kartinalar besh peyzaj ko`rinishni o`z ichiga oladigan, atoqli «Yil fasllari» seriyasidan oldin yozildi. Qabul qilingan klassifikatsiya bo`yicha «Qordagi ovchilar» dekabr`-yanvarni, «Bulutli kun» – fevral-martni, «Pichan o`rish» – iyun-iyulni, «Hosil» – avgust-sentyabrni, «Podaning qaytishi» – oktyabr-noyabrni bildiradi. Aprel`-mayni tasvirlovchi kartina yo`qotilgan bo`lib hisoblanadi. «Yil fasllari» landshaftlar tashqi ko`rinishi va tematikasi bo`yicha ikki zonaga bo`linadi. Tomoshabinga eng yaqinrog`i balandroqqa joylashtirilgan va odam hayotiga bag`ishlangan, bu erda rassom kundalik hayot detallariga alohida diqqat qaratadi, ikkinchi plavn, odamsiz, ko`k jiyakgacha cho`zilgan uzoqlikdan iborat. Breygelning ajoyib peyzajlari, «Xudo tabiat qonunlariga bo`ysinmasdan xohlagan mo`jizalarni ko`rsatishi mumkin, biroq u har kuni jinnini yoki yomon kaslli odamni tuzatishga qaraganda ham kuchliroq mo`jizalar ko`rsatadi; bu mo`jizalar hayroe qoladigan yo`q, kundalik tabiiy narsalarday, ya`ni tabiatning o`zining qonunlaroi bo`yicha bo`layotganday, va shuningdek biz ularning «mo`jizaligini» sezmaymiz», – deb aytgan Erazm Rotterdamskiyning dunyoni his qilishlari bilan uyg`un.

O`zining har bir asarida Breygel` shu haqiqiy hayron qolarlik «mo`jizalilikni» yoki hayron qoladigan «mo`jizali» haqiqatni asos qilib oldi. Jahon rangtasvirida uning peyzajlari alohida o`rin egallaydi, sababi shundan deyarli kosmosli qarashlar tirikchilikdagi kundalik voqealar bilan shunday tabiiy qo`shilib ketgan tabiat tasvirlanishlari boshqa hech kimda yo`q. Breygelning tabiatni tasvirlovchi juda yuqori darajada va ishonchli. Shuningdek uning Niderlandiya rangtasviridagi peyzaj janrning asosini soluvchi deb hisoblanadi asossiz emas.

«Yil fasllari» seriyasidagi kartinaplarda Breygel` birinchi va yolg`iz bir marta odamning ishlangan ishlarini, uni tabiatning mangulik o`zgarib brrishining tarkibiy qismi sifatida kiritib, odamlarning foydali va ma`noli ishchanligini tasvirlaydi. Bu erda odam tabiat bilan to`liq bog`liq, biroq shuning bilan birga «to`nkarilgan dunyo» printsiplari bo`yicha emas, balki tabiatning qonunlari bo`yicha, uning bilan to`liq uvyg`unlikda yashayotgan deb hisoblanadi. Bu odamlar to`g`risida, ularning sog`ligi mustahkam, kuchli, ishchan va mehnatkash odamlar ekanligidan boshqa narsa aytish qiyin. Biroq, ularning hayoti haqiqiy mazmunga ega bo`lganlikdan, ular o`ziga xos ko`rinishga ham «o`zining mehnatkashlik go`zalligiga» ega.

Hayotining oxirida Breygel`, uning butun ijodining yakuni sifatida qabul qiladigan bir necha kartina yozdi. Ularning biri «Ko`rlar». Mavzusi bo`yicha kartina «...Agar ko`r ko`rni etaklab yursa, unda ular ikkisi ham chuqurga qulaydi» degan so`zlari bor Taurat timsolning illyustratsiyasi bo`lib hisoblanadi. Haqiqatda bor, Brabant peyzaji fonida rassom, bir biriga mustahkam osilib olgan ko`rlar qator bo`lib qishloqning yonidagi yo`lni to`sib turgan o`zakani anglamay, oldingi ko`r, boshqalarning ham o`zining izidan tortib, yiqiladi. Boshqa ko`rlarni iziga ergashtirib, etaklab borayotgan ko`r obrazi, «to`nkarilgan» odam ongining keng tarqalgan misoli sifatida XIII asrdan boshlab qo`llaniladi. Bu erda ko`rlik, ko`r taqdirning belgisi. Rassomning bu yarim jon odamlar obrazida, er shari bo`ylab kezib yurgan, jismoniy va ma`naviy tomonidan ko`r odamzotning va bu yo`lda uni kutib turgan va jazolovchi Taqdirning qat`iyatliginng ahamiyatli belgisi obrazini yaratilganligiga gumon yo`q. [II.8,67-145]

GERMANIYA D A G I R E N E S S A N S

XV asrda badiiy san`at Italiyada moddiy dunyoni ilmiy tushuntirishga, Niderlandiyada uning ko`zga ko`rinib turgan go`zalligini diniy yo`l bilan berishga, balki Germaniyada bo`lsa – ko`zi bilan ko`rganlarini aniq, shu to`g`risida tasvirlab ko`rsatishga, aytib berishga va aql-nasihat berishga intildi. Kitob bosib chiqarish va grafika san`atining nemetslar tomonidan kashf qilinishi to`satdan emas. Biroq Germaniyada tasvirlash san`ati oqimlik tomonidan bir turda emas, har xil edi. Agar Niderlandiya rassomlarida natutsralizm va panteizm eng ko`proq darajada rivojlanish topgan bo`lsa Germaniyada naturalizm bilan bir qatorda juda kuchli spiritualizm teng yurdi. [II.24,12-45]

Nemets Uyg`onishining asoschisi, o`zining ijodida xiliazm, oxir zamonning keladiganligini, biroq shuning bilan birga yangi gumanistik qarashlarning paydo bo`lishida his qilish kayfiyatlari keng tarqalgan shu davrning ruhiyatining nozik mahorat bilan bera olgan Al`brext Dyurer (1471-1528) bo`lib hisoblanadi. Mayntsdan chiqqan I.Guttenborg tomonidan kitob bosib chiqarishning kashf qilishini orqasida qadimgi dunyo mualliflarining va Renessansning ko`pchilik asarlari keng byurgerlar guruhining mulkiga aylandi va yangi Renessanslik dunyo qaroshning tarqalishiga sababchi bo`ldi.

Butun zamondosh intellektual hayot jamlangan Bazel` va Strasburning kitob bosib chiqaruvchi ustaxonalarida Dyurer yorug` dunyoviy mazmundagi kitoblarni, shuning ichida Sebastian Brandning (1457-1511) shuhrati chiqqan «Ahmoqlar kemasi» ni bezadi.

Bu, nasihatli mazmundagi kitob o`rta asrlar adabiyotidagi atoqli hodisa bo`ldi, sababi birinchidan, u lotin tilidagi emas, balki nemets tilida yozilgan edi, ikkinchidan avvalgi o`git-nasihatli tushunchalar va yomonlikning, zulmlikning kelib chiqishi haqidagi fikrlarga gumon bilan qaradi. O`rta asrlik poemalarda odamlarning baxtsizligi, ularning izidan qolmay quvg`in qiladigan shaytonning hiylalari sababli kelib chiqadi deb hisoblandi. Balki, «Ahmoqlar kemasi» bo`lsa,

dunyoni buzib va vayron qilayotgan shayton emas, balki odamlarning ahmoqligi va behayoligi deb kʻrsatdi. Va Brandt «insoniyat naslini tuzatish, ahmoqlikni, koʻrlikni va yomon illatlarni, eski ahmoqchilik urf-odatlarini, tushunchalarni yoʻq qilish uchun» odamlarning barcha kamchiliklarini – nodonliklarini, buzuqchiligini, dangasaliligi va h. «oynaga solib» koʻrsatdi.

Dyurerning gravyuralari tasvirlanayotgan koʻrinishning barcha maydachukydalarini aniq beradigan va unga xos boʻlgan narsalarni alohida atab koʻrsatadigan janr koʻrinishning oʻzi edi, va bu odam tanasining nuqsonsiz chiroyligi bilan uncha qiziqmaydigan barcha nemets rangtasvirining oʻziga xos farqlarining birini edi. Hattoki, Italiyaliklarning taʼsiri ostida plastik anatomiya bilan koʻp shugʻullangan. Germaniyaning eng «italiyali» rassomi boʻlgan, Dyurer ham ish yuzasida birinchi navbatda ularga xos boʻlgan belgilarini berib, figuralarni buzib koʻrsatdi.

Dyurerning tematikasining va oqimining xususiyatlarining tanlanishi, barcha nemets rassomlari kabi, uning chuqur dinchiligi kelib chiqdi. Diniy talashlar sababli chigallashgan sharoitlar, antixristning kelishini va dunyoning ofatga uchrashini kutish, Xudoning adolatligidan umid qilish – bularning barchasi Dyurerning buyuk asari «Alokalipsis» da toʻliq ifodasini topgan. Kosmos ofatchiliklar va kelajakdagi Qoʻrqinchli sud mavzusiga ishlangan gravyuralar seriyasiga singdirilgan kayfiyat Dyurerning kundaligiga yozilgan duo soʻzlari bilan uygʻun: «U, osmondagi Xudo bizlarga rahmat et, O Tangrini Iisus Xristos, oʻz xalqingni himoya qil, bizlarni oʻz vaqtida qutqarib qol...». Bu qogʻozlar, asosiy taʼsirchanlik usuli oʻtkir taʼsirchanlik va harakatchanlikni «metafizik shamol» taʼsirida hayron qoladigan turda koʻtarilib uchib, shildirab oqib turgan pardalarni tasvirlash orqali beraladigan aniq, chiziqli konturlar boʻlgan gotik rangtasvir bilan chambarchas bogʻliqligini saqlab qolgan. Figuralarning plastik hajmliligi va fazoviylikning chuqurligi asosiy rol oʻynaydi, biroq obrazlarning xayoliyligi, ularning iborali maʼnosmi va belgili mazmuniga qaramasdan, seriyaning barcha gravyuralari odatdan tashqari haqiqatchil. Ular, oʻrtada –

ko`pincha shu zamonga xos tashqi ko`rinishga ega, shu vaqtlardagi kiyimlarga kiyindirilgan, aniq belgili bilan erning landshafti bilan himoyalangan dehqon turidagi, Dyurerning zamondoshi joylashtirilgan, janrluk ko`rinishlar bo`lib hisoblanadi. [II.24.89-144]

Ularning orasida eng belgisi, juft otlarga minib, parishta yo`l boshlab, chopib borayotgan to`rt apokalipsislik chabandoz tasvirlangan qog`oz.

«Apokalipsis» da – dehqon, shahar turg`uni, imperatorning haqiqiy obraz iva kundalik turmush detallarga juda boy o`rta asrning simvol iva mistik fantastika murakkab aralashib chirmashib ketgan.yu

«Mohirlik gravyuralari» nomi bilan belgili o`lgan, shuhrati – «Otli ajal va shayton», «Ieronim monax bo`lmasida» va «Melanxoliya (Xafalilik)» gravyuralari ham shunday ikki mangulik belgilarga ega. Bu gravyuralarda aqlga muvofiqlik va mistika, odam donoligining kuchiga ishonch va uning imkoniyatlarining kamligini his qilib bilan birga yashaydi. Xuddi shu ishonch, kutib turgan Ajalga va Shaytonning hiylalariga qaramasdan, Osmon saroyiga qarab qo`riqmasdan yurishiga imkoniyat beradi. Dyurer Erazm Rotterdamskiyga qarata bunday deb yozadi: «U Erazm ishlayotganiga qara! Tingla, sen Xristos ritsari, Tangri Xristos bilan bir qatorda turib olga chiq, haqiqatlikni himoya qil, jafokashlik tojiga loyiq bo`l». [II.7,34-78]

Obrazi, Xristostning jonli so`zlariga chuqur ishonch bo`lmasa mangulik bili shva mangulik shodlikning mumkin emasligining isboti bo`lib topiladigan «Ieronim monax xonasida» «Qahramon» obraziga qarama-qarshi qo`yilgan.

Eng «yashirin ma`nolisi», chuqur qayg`uli o`yga botgan, qo`lida tsirkuli bor qudratli qanotli ayol tasvirlangan «Melanxoliya» bo`lib topiladi. «Cheksiz go`zallik deganning nima ekanligini men bilmayman», – deb yozdi Dyurer umidsizlikga tushgan vaqtlari – Buni Xudoning boshqa hech kim ham bilmaydi». Ikki tomonlilik xohlagan ijodkor siymo uchun xos: u katta imkoniyatlarni yashiradi, biroq qanchalik talantli bo`lishiga qaramasdan mangulik go`zallikning sirini ocha olmaydi. Rassomning sirli Melanxoliyasi obrazida, ijodkorlik

donolikning shu «xafali hislar ko`ringan» holati ifodalangan. Uning «Ma`naviy avtoportret» deb atalishi bekor emas.

Biroq shunday diniy ta`limot asarlarida ham Dyurer Shimiliy Yyg`onishning mohir ustasi bo`lib qoladi. U qiyshiq ildizlarni, butalarni, balki tuyaning ostidan o`sib chiqib turgan nozik gullarni va uning boldoqlarini, ytso`lni kesib o`tib borayotgan kaltakesakni tabiatchining puxtaligi bilan tasvirlaydi («Otli, ajal va shayton»); devorlarida, narsalarda kun nuri o`ynab turgan, avliyo Iernoimning qulayli hujrasidagi tinchlik va jimjitlikni mahorat bilan beradi («Jeronim monax xonasida»); Melanxoliyaning dasturiy atributlarini: tsirkul`ni, qum soatini, tishli qilichini, miss rangli yarqirab turgan derazasini va bularning barchasini insonni o`ziga tortadigan peyzaj fonida rohatlanib tasvirlaydi.

Yog`och va misdan ishlangan gravyuralardan tashqari Dyurer portretlar, altar` kartinalar yozdi, akvarelda, rasm chizishda ishladi va hamisha uning ijodkorligining o`ziga xos xossasi – aqlga muvofiqlik ko`rinib turibdi, uning jonli natura ustidan yurgizgan matematik hisoblashlari va kuzatishlarining natijasi faqatgina odam figuralari, kapalaklar, qo`ng`izlar, ninachilar, o`simliklar va mevalar qo`l bilan ushlab his qilishga bo`ladiganday bo`lib tasvirlangan ko`p sonli rasmlari, kartinalari va gravyuralari bo`lib qolmadi, balki nazariy mehnatlari ham bo`ldi.

Uning tashqi dunyoni keng tanishiga, insonning ichki dunyosini tushuna olishda ham qo`shildi, bu uning xarakteristikasining chuqurligi va tiplastirilishining kuchliligi bo`yicha hayron qoladigan portretlarida ifodasini topdi. Dyurerning portret obrazlariga chuqur o`yga to`la, simmetriyasiz, chiroyli emas yuz ko`rinishlari xos. Shuning bilan bir vaqtda yakka odamga tegishli ko`rinish avval o`yloab olingan kamchiliksiz ko`z oldiga keltirishga yo`naltirilgan edi. Bularga «Avtoportret», «Yosh ayol portreti», «Yosh yigit portreti» va h. misol bo`la oladi.

Dyurerning insonga qarashi o`zining xulosasini chiqargan, chuqur portret janrdagi kartinalarining biri «To`rt apostol» diptixi (ikki bukclamali asar) bo`lib

hisoblanadi. Kartina, injilning chuqur o'ylanib tanlab olingan, protestantizm o'rnatilganligidan keyin Germaniyadagi ruhiy sharoitni ochib ko'rsatadigan aql-nasihat so'zlar bilan ta'minlayngan edi, va bu erda ham u nemets Uyg'onishiga xos bo'lgan vakil sifatida ko'rinadi. Dyurer har biri yorqin yakka xususiyatlariga ega bo'lgan va rassomning o'zining aytishi bo'yicha har biri belgili bir temperamentning timsoli bo'lgan, tantanali, qat'iyon donishmandlarning obrazlarini yaratdi. Shuning bilan birga bu, haqiqatda ham juda buyuk obrazlar monumental va ularning turli sabrlilik taralib turibdi va bu ularni nemets Uyg'onishining alohida xususiyati-tiplilikni o'ziga xoslik orqali berish alohida aniq ko'rinadigan, nemets badiiy san'atidagi eng Renessansli asarga aylandiradi. Nemetslarning juda dinchiligi sababli kelib chiqqan Germaniya tasvirlash san'atining alohida xususiyatli, shuningdek Xristosning chekan azoblarini har bir odam o'z hayotidagi tragediya sifatida qabul qilgavnligi, uni har bir dinga ishonchini odamning hayotida har kuni yuz beradigan, qo'rqinchli, juda yomon voqea sifatida tushunishdan ham kelib chiqdi. [II.7,89-139]

Xunuklik va go'zallikning, naturalistik va metafizikalilikning hayron qoladigan turda aralashib birga kelishi bo'lgan, Izengeym altari kabi asarning yaratilishi xuddi shu sabab bilan tushuntiriladi. Uni yaratgan usta – Mattias Gryuneval'd (1480-1528). Altar` avliyo Antoniy cherkovi uchun ishlangan bo'lib, haykal bezash bilan bezalgan tashqi tobutdan va ikki tomonidan ham «Xush xabar» boshlab «Qayta tirilish» gacha injildan olingan syujetlar, va shuningdek avliyo Antoniyning hayotidan olingan ko'rinishlar tasvirlangan uch buklamdan iborat. Yopiq buklamalarda o'rtasida, boshqa odamlardan ikki marta katta bo'lib, ularning ustidan yuqori ko'tarilib, oddiy qalqonga qoqilgan Xristos turgan, azobli Raspyatie tasvirlangan. Bu orqali rassom obrazning ruhiy ahamiyatliligi alohida atab ko'rsatadi, balki bunga, qalqonga tortilganni ko'rsatib: «U kattalashib men bo'lsam kichirayishim kerak», – deb aytib turgan Cho`qintiruvchi Ioann tushuncha beradi. Gryuneval`dning Xristosni shunday hayron qoladigan ishonchlilik bilan tasvirlanganligi shunchalik, tomirlari tortilgan oyoqlari va barmoqlari qiyshayib

ketgan tana, haqiqatda ham kattalashib, altarning jiyagini deyarli teshib chiqib borayotganday bo`lib ko`rinadi.

Nemets badiiy san`atining Xristosning azoblanishlarini o`zining azoblanishi sifatida qabul qilish kabi alohida xususiyati, uning diniy qarashlari odamlarga hali XIV asrda yoq aytib berib, odamlar bilan bo`lishgan avliyo Brigittaning juda haqiqatlik bilan bayon qilingan yozmalaridan ruhlanuvchilik oldi. «Iisus Xristos va uning onasi Avliyolar avliyosi Bibi Mar`yamning hayoti va azoblanishlari haqida haqiqatlik» da»» Shat tikkandan ishlangan toj uning boshiga botib kirdi, u manglayining yarmini yopib turdi. Qon taram-taram bo`lib suvday oqdi... Keyin ajal bo`yoqlari sochiradi... uning joni chiqqan vaqtlari og`zi ochildi va qarab turganlar uning og`zidagi tilini, tishglarini va qonni ko`ra oldi. Ko`zlari yumuldi. Tizzalari bir tomonga qiyshaydi, oyoqlarining tovonlari suyaklari chiqib turganday bo`lib, mixlarning atrofida tovlendi... Tomirlari tortilib qiyshayib ketgan qo`llari va barmoqlari ikki tomonga yoyilib turdi».

Yakshanba kunlari, Izengeym altarining markaziy bo`limining tashqi tomonlari ochilgan vaqtlari Golgofadagi (Taqir tepadagi) qayg`uli ko`rinish yo`qoladi, va cherkovga «Parishtalar kontsertining» shodligi quyilib turadi. Kompozitsion tomondan kartina ikki ko`rinishda tarkib topadi. [II.23,67-98]

Chap tomondan, ichida «osmon cherkovining» nishoni vazifasini bajaruvchi Bibi Mar`yam ko`rinib turgan, qizil rangli mineral bo`yoqdan, qizg`ish ko`k, sariq va ko`k uchqunlari sonsiz jimlashib yiltillab turgan, so`nggi gotika «alangalangan» oqimdagi chasovnya tasvirlangan. Kapellaning gumbazlari ostida uni maqtab turgan shodli parishtalarning guruhi paydo bo`ladi. Bu, ertaktagiday chiroyli, xayoliy ko`rinishga, ochiq osmon ostida, sochilib yotirgan bolaldarga tegishli narsalar orasida o`tirib, mehribonlik bilan go`dagiga enkayib qarayotgan xudo onasi tasvirlangan janr ko`rinish qarshi qo`yiladi.

Gryuneval`da tengi yo`q kolorist edi va u figurardan sachrab chiqib turgan nurlanishni hayron qoladigan mahorat bilan bera oladigan edi. Tosh tobut ustida Xristos ko`zni qamashtiradigan ko`rinishga o`ranib, g`oliblik bilan, palpallab

uchib, qalqib turibdi. Uning yuzi, hilpirab turgan ko`k plama qizg`ish-sariq va qizg`ish, chaqnagan nur sohib turgan, sariq sag`imga aralashib singib ketgan («Qayta tirilish»). Bezakli gotik soyabon ostiba Bibi Mar`yamning tizzalari bukilgan figurasi, uning orqasida musiqa chalib turgan parishtalarga sachrab turgan, chetlarida qizg`ich-sariq-qizil ranggacha quyuqlashadigan oltin nur tarqatib turibdi («Parishtalar kontserti»).

Kartinada ustunlik etuvchi diniy ko`tarinkilik, Bibi Mar`yamni gohida Xudoning sevgilisi sifatida ko`rgan: «Shunday nuqsonsizlikda Sen Xudoning ko`zi oldida mangulikdan kelib paydo bo`lding va Sening xossali tanang yorqin va toza elementlardan yaratildi», – gohida Xudo onasi sifatida ko`rgan: «O`zining go`dagiga qaragan vaqtlari Xossali Bibi Mar`yam boshqa onalarga qaraganda qanchalik ko`p darajada quvonchga erishgan bo`lsa, u Uning azob chekadiganligini oldin sezib, boshqalarga qaraganda shunchalik ko`p darajada qayg`uga botdi», – avliyo Brigittaning telbalik ko`z oldiga keltirishlariga uyg`un.

Gryunevaldning ijodkorligining mistik sifatiga qaramasdan, uning ijodkorligini «O`rta asrlarning kuzi» deb baholashga bo`lmaydi, sababi u tomonidan qalqonga tortilgan Xristosning qoni oqib turgan tanasida va parishtalar kontsertidagi ertakdagiday nur sochilishida ko`rsatilgan mistitsizmi millionlangan odamlarning azobli o`ylari va umidlari bilan to`ldirilgan, erdagi hayotga xos bo`lib topiladi. Unga xos bo`lgan haqiqatliknei havas bilan izlanish, uning kompozitsiyalarining bayon qiluvchilik sifatida va ularda kundalik hayot ko`rinishlarining mayda-chuydalarigacha paydo bo`lishida va shuningdek avliyolarning figuralarining bu zamondagi odamlarning, ko`pincha, xalq orasidan chiqqan odamlarning ko`rinishiga ega bo`lishida ko`rinadi. «Tug`ilish» ko`rinishidagi salmoqli g`ijimlar bilan past tushib turgan, qizg`ish ko`ylak kiygan, bosiq va kuchli ayolda gotikaning xayoliy madonnalariga o`xshamaydigan, Renessanslik obrazning jonlandirilganligida gumon yo`q. [II.2,56-78]

Nemets Uyg`onishining buyuk rassomlarining eng so`ngisi, ijodkorligi ko`proq darajada, dastlab Shveytsariyada, balki keyin Angliyada o`tgan Kichik

Gans Gol`beyn (1497/98-1543). Italiyadagi Uyg`onish madaniyatining emirilishi davomida faqatgina Venetsiya Respublikasi Renessanslik badiiy san`atni uzoq vaqtgacha saqlab qola olganiday, German davlatlarida Uyg`onish badiiy san`ati dasturlarining saqlovchisi respublikachil Shveysariya ittifoqi bo`ldi. Dastlabki vaqtlari Gol`beyn faqatgina kitoblarni illyustratsiyalash bilan shug`ullanadi, va bu uni shaharli aslzodalar tevaragiga kiritgan buyuk Erazm Rotterdamskiy va boshqa ham gumanistlar bilan tanishishga olib keldi. Bu sharoit uning dastlabki rangtasvirlik buyurtmalar – shveysariyalimklar juda qiziqadigan, altar`obrazlarga, portretlarga, uylarning devorlariga ranglab rasmlar chizishga buyurtmalar olishiga imkoniyat yaratdi. Buning ustiga murakkab perspektiv rakursli, yolg`on arxitektura elementlari bor, ko`p sonli planlarga ega, antik va janr syujetlari bor freskalarga modani kiritdi.

Gol`beynning Bazelda bo`lishini birinchi yillari-yoq alohida belgilari haqiqatga aqlga muvofiqlik bilan qarash va qimmatli bo`lgan oqim shakllandi. Kompozitsiyasidagi uyg`unlik va rangni his qilini uni italiyali rassomlarga yaqinlashtirdi, biroq haqiqatda bor hodisalarni ko`rsatishdagi ishonchliligi uning nemetslik kelib chiqishining gumonsiz ekanligini ko`rsatdi. «Zoloturn Madonnasi» da altar obrazning uyg`unlik kompozitsiyasida va koloritida italiyaliklarning ta`siri aniq ko`rinadi, biroq mustahkam tasvirlangan detallar va narsaning moddiyligining aniq to`g`rilik bilan berilishi – haqiqiy arkaniki. Rassom avliyo Ursning sovutining yarqirashida, metall rangida qulflab turgan quol-yaroqlarining yorqirashida, oq plyumajning yumshoq parlarini ham, balki qizil ippakday bo`lib do`nib tovlanishida, arkani ushlab turgan temir chibiqchalarni ham ishonchli aniqlik bilan beradi. [II.27,14-35]

Obrazida hech qanday ruhlanuvchilik, hech qanday mo`jizalik, ko`rinmaydigan, o`lik Xristosni Gol`beyn bundan ham battar haqiqat bilan, deyarli anatomik mustaqilligi bilan tasvirlaydi. Tanning o`lib chiryidiganligi haqida irib boshlagan gavda guvohlik berib turibdi, – qo`li qorayib ketgan, ko`kragidagi yaraning atrofida ko`kish ko`rinish paydo bo`lgan, – qotib qolgan, chaqchaygan

ko`zlar. Sal-pal ochilgan og`izning kulimsirashi. Bu erda Gryuneval`dga xos bo`lgan o`tkir ta`sirchanlik yo`q, faqatgina o`limni qat`iyan to`g`rilik bilan tasvirlag bor. Dostoevskiyning «bunday kartinadagi dinga ishonch yo`qolishi mumkin» deb yozishi to`satdan emas.

Hayotga faollik bilan kirib kelgan, Islohotlar va Dehqonlar urushi davrining atmosferasini to`yindirgan ajal, Gol`beyn tomonidan – Uyg`onish davridagi nemets grafikasining ajoyib asarlarining biriga aylangan yog`ochga ishlangan – «Ajal o`yini» gravyurasida ifodasini topgan. Bu erda rassom beg`am, beg`araz aytib beruvchi pozitsiyasidan uzoq, u yaxshilikni maqtash va buzuqchiliklarni qoralab, o`zining ijtimoiy va siyosiy qarashlarini ko`rsatadi, mana, monaxning ajali etib turibdi, balki u bo`lsa o`zining eng qimmatli narsasini – hamyonning yashirayapti, manna monax ayoz o`zining jazmani bilan uchrashayotgan monaxlar hujrasida ajal topadi, hattoki o`lim oldida ham sud`ya pora olib, nohaq hukm chiqaradi, Ajal kambag`al er suruvchining oriq mollarini haydab ketadi va qo`zg`olon ko`targan dehqon obrazida grafga etib keladi.

Gol`beynning ijodida portret katta o`rin egallaydi. Bu janr bilan u yoshligida ham («Bonifatsiy Amerbaxning portreti»), Angliya koroli Genrix VIII Tyudorning saroy rassomi bo`lib ishlagan, keksaygan yillarida ham shug`ullandi («Frantsuz elchilarining portreti»). Modelning ichki ruhiy hayotiga nazar solishga intimay, o`z qadrini biladigan, o`z maqsadiga intilgan Uyg`onish davri odamining to`liq, butun obrazini tasvirlab, Gol`beyn unga o`xshashlikni yaxshi bera oldi. Shuning bilan birga uning rangtasviri hayron qoladigan aniq edi: salmoqli baxmal, jun, yumshoq layka, po`lat qilishning yuzi, yiltirib turgan oltin, atirgulning nozik gul yaproqlari – bu ajoyib mahorat bilan berilgan detallar haqiqatlikni faqatgina erkan bera oladigan emas, balki uning ustidan hukm sura oladigan, yangi davr rassomining faxridan guvohligi bo`lib hisoblanadi. [II.27,67-145]

FRANTSIYA D A G I R E N E S S A N S

XV asr davomida, feodal tarqoqlilik va Yuz yillik urush (1337-1453 yy.) sharoitidagi, qiyin, tarixiy sharoitda, asta-sekinlik bilan dunyoviy sifatga ega bo`la boshlagan frantsuz tasviriy san`ati sohasida o`zgarishlar yuz berdi.

Biroq, gotika ruhi odamlarning ongiga chuqur o`rnashgan edi va mustahkam o`rin olgan gotika dasturlarga suyanga qiziquvchiliklar juda astalik bilan o`zgardi. XVI asrning oxirigacha arxitekturada o`rta asrlik va Renessanslik shakllar birga yashashishi davom ettirdi va hattoki haykaltaroshlik va rangtasvirda ham gotika elementlari saqlanib qoldi. [II.33,12-32]

Taxminan, realistik yo`nalishlar eng to`liq darajada sezila boshlagan dastlabki badiiy sman`at turi kitob miniatyurasi bo`lsa kerak. Atab aytganda psaltirlarni, injillarni, chasoslovlarni, tarixiy shajaralarni (xroniklarni) illyustratsiyalada qurshab turgan dunyoga yangi munosabatni va shartli tasvirlashdan realistik tasvirlashga o`tishni ko`rishimizga bo`ladi.

Tabiatga diqqat bilan qarash, uni tadqiqot qilishga va unga taqlid qilishga harakat etish hayot haqiqatligini berishning yangi usullarini keltirib chiqardi, narsalar va odam figuralari o`zlaridan soya tushiradi, katta fazoviyliklar uzoqqa qarab cho`zilib ketadi, narsalar uzoqlashgan sari kichirayadi va tashqi bichimi buldiraydi. Rassomlar birinchi marta yorug`li-havoli muhitni, odam tanasi harakatining mexanizmini bera boshladi. XV asrdagi frantsuz badiiy san`atidagi yangi yo`nalishlar, shu vaqtlardagi Frantsiyaning asosiy madaniy markazi, korolning turadigan o`rni bo`lgan Tur da ishlagan rassomlarning ijodida to`liq darajada ko`rina boshladi. Turen` frantsuz Toskanasi deb ataldi va bu erda frantsuz Renessansining yangi oqimi tug`ildi.

Tur da XV asrdagi eng yirik frantsuz rassomlarining biri – Jan Fuk (1420-1477/81) yashadi va ishladi. Fuke, ijodkorligiga yakka odamga qiziquvchanlik va portretlik o`xshashlikni berish aniq belgili bo`lgan birinchi frantsuz rassomi bo`ldi. Gotika altar kompozitsiya chegarasidagi eng yaxshi asar, so`zsiz, chap

tomonidagi buklamasida donator Et`en Sheval`e va himoyachi avliyo Stefan, o`ng tomonidagi – Madonna (Bibi Mar`yam) go`dagi bilan tasvirlangan «Melen diptixi» bo`lib hisoblanadi. Donatorning va himoyachi avliyo Stepanning to`rt dan uchga burilib turgan kelishgan figuralari tekislikni deyarli to`lig`i bilan egallab turibdi va obrazlarning bir qancha asketligiga qaramasdan, dunyodan qo`l uzgan va ilohiy bo`lib ko`rinmaydi. Ularning orqa tomonidagi fazoviylik teranlik belgilariga, balki ularning yuz ko`rinishlari tabiiy sifatga ega. [II.33,44-79]

Madonnaning qonsiz yuzining va go`dakning tanasining marmarday oppoqligi, aksincha, serafimlar va xeruvimlarning (serafim, xeruvim- parishtalar) alangali qizil va yorqin ko`k kichkina figuralari ushlab turgan tantanali taxti fonida keskin ajralib turadi. Shuning bilan birga qirilgan keng manglayi, kichkina bo`yi, oq terisi, qisib boylangan beli, pozasi va oq suvsar terisidan ishlangan chopon (mantiya) yopingan ko`k ko`ylagi – shu vaqtlardagi saroy xonimlarining o`ziga xos belgilar edi, buning ustiga Madonnaning obrazi Karl VII ning sevgilisi Agnessa Sorel` bilan portret o`xshashlikga ega edi. Parad, mo``jizali sharoit va kundalik hayot haqiqatligining bunday qarama-qarshilikli ko`rinishlari Yan van Eyk o`zining altar` kartinalarida qo`llangan usullarga yaqin.

Italiya bilan savdo aloqalarining o`sib borishi, undan so`ng bo`lsa, frantsuz korollari Karl VIII ning va Frantsisk I ning Italiyaga yurishlari Frantsiyaga ital`yan Renessanslik madaniyatining keng tarqalishiga yo`l ochdi. Frantsuz gumanizmining o`ziga xos farqi, uning saroy muhiti bilan aloqaligida bo`ldi. Bu, Niderlandiyadagi kabi byurgerlik emas, balki saroy madaniyati edi va Frantsisk I ning badiiy san`atga g`amxo`rchilik qilishi unga aslzodalike, oqsuyalik tur berdi. Frantsiyada, hislar orqali qabul qilish bilan bog`liq bo`lgan, oqsuyaklik ijtimoiy dunyoqarash – sensualizm eng ko`proq darajada rivojlandi. Badiiy san`atda u «Davrdoshlar» shoirlari va Fontenblo maktabi bilan eng to`lig`iroq darajadva tanildi, Frantsisk I Frantsiyaning eng bilimli odamlarini, shoirlarini, olimlarini o`z saroyiga tortdi. Italiya badiiy san`atini hurmat qiladigan bo`lganlikdan u Italiyaning atoqli rassomlarini chaqirdi. Ular frantsuz badiiy san`atiga sezilarli

ta'sir ko'rsatmasada, biroq undagi o'rta asrlik dasturlarni engishga yordam berdi. Buyuk Leonardo da Vinchi hayotining so'ngi uch yilini Frantsisk I ning saroyida o'tkazdi.

Frantsisk I ning zamoninda butun Frantsiya bo'ylab qurilishlar keng tarqaldi. XVI asr Frantsuz uy quruvchi ustalari milliy uyg'onish me'morchiligining alohida variantini yaratdi. Qadimgi dunyo (antik) me'morchilik shakllaridan va Italiyaning tajribasidan foydalana o'tirib, ular o'zlarining oba-bobolarining kashfiyotlaridan ham chetlab o'tmadi. Otdagi deraza – lyukarnali va baland trubalari bor tik bostirmalarning, shpillarning devorlariga orter ishlash berilgan minoralarning aralashib kelishi keng tarqaldi. Yo'nilgan ohak tosh va g'isht aralash o'rib qurilgan eshik qo'rg'on-saroy asos qilib olindi va yuqori klassik me'morchilik shaklidagi yangi turda qayta qurildi. [II.33,89-122]

Qo'rg'on-saroydagi avvalgi ko'p burchakli plan saqlanib qolindi, qo'rg'on devorlari buzib tashlandi va korpuslarning fasadlari atrofga ochilib qoldi, biroq qo'rg'on-saroyga minorlari bor, qalin o'tkal-darvoza orqaligina kirishga bo'ladigan edi. Imoratning yuqori qarab bo'y cho'zib intilishi antablementning kengdan qo'llanilishi, uzaytirilgan derazalarning ko'p tantanaliligi bilan yumshatildi; o'rganuvchi gotika bezaklar medal'onlar, pilyastrlar, akanf yaproqlari, Frantsisk I ning emblemasi bo'lgan – toj kiydirilgan salamandrlar bilan almashtirildi. XVI asrning birinchi yarmida shunday qo'rg'on-saroylarning ko'pchiligi Luara vodiysida, korolning turar joylarida yaratildi. Bular Blua, Shambor, Shevern, Ambuaz, Shenonson qo'rg'on-saroylari. Frantsuz madaniyatining ahamiyatli davri Fotenblodagi qo'rg'on-saroyning qurilishi bilan bog'liq.

O'zining hukmdorlik qilishining ikkinchi yarmida Frantsisk I qurilish ishlarining markazini Parijga yaqin erga, Il' de Frans tarixiy viloyatiga ko'chirdi. Asrlar davomida yamab qurilib kattalashib kelgan qo'rg'on-saroy bir qancha tartibsiz qurilish turiga ega edi, uni qayta o'zgartirib qurishi 1528 yili arxitektor Jyul' Leberton qo'lga oldi. Keyinchalik qo'rg'on-saroy bir necha marta qayta

qurildi, biroq Frantsisk I zamoninda qurilgan asosiy bo`limlari saqlanib qoldi. Bu, orasida atoqli bal o`tkazishga maxsus zali (Genrix II galereyasi) bor, korolning yashaydigan joylari bilan qursholgan so`poq hovli. Ularga bir tomoni katta hovuzga qarab ochiladigan buloq hovlisini, balki ikkinchi tomoni – o`rtasida Diananing haykali turgan, gulzorlari bor diana hovlisini paydo etadigan, Frantsisk I ning galereyasi nomini olgan galereya ulanib qurildi. Galereyaga perpendikulyar bosh korpus shu ikki hovlini ulab turdi va uning fasadi bayramlar va turnirlar o`tkaziladigan o`rin – Oq ot hovlisiga qaratildi. Unda, barcha order qurilishlarining alohida belgisi bo`lgan, frantsuz Renessanslik me`morchiligiga umumiy o`rtoq belgilar o`z ifodalarini topgan bular devorlarining kvadrli o`rilishi va devor yuzini rust qoplama bilan qoplash, aylana minorlarning o`rniga devorlarning to`g`ri burchakli chiqib turishlari – fasadida markazlari ajratib ko`rsatilgan rizalitlar qurilib almashtirilishi, karniz gorizontallari bilan qavatlarining ajratilib turishi.

Fontenblogo boy korol` kutubxonasi, antik kolleksiyalar, Rafael` va Leonardo da Vinchining durdona asarlari olib kelindi. Ichki bo`lmalarni dekorativ bezash uchun Frantsisk I Italiyali rassom man`eristlar – Rosso, Primatticho, Chellinlarni chaqirdi. Ular frantsuz rassomlari orasidan, Fontenblo maktabli deb atalgan, o`zlarining davomchilarini topdi. [II.33,134-156]

Fontenbloda ishlagan man`erizmning eng yirik vakili, sochlarining rangi sababi Rosso F`orentino (1493-1541) – sariq florentsiyali deb atalgan, florentsiyali rassom Djovanni Batista di Yakopo bo`ldi. Andrea del` Sarto va Mikelandjeloning ishini davom ettiruvchi bo`gan Rosso, uzaytirilgan figuralarning, keskin qarama-qarshiliklarining, burchaklarning aralashib kelishiga qurilgan, juda o`tkir ta`sirli hislari bilan ajralib turadigan o`z oqimini yaratdi. Bu oqim Frantsuz gumanizmning aslzodalik ruhiga, «gotika egmalik» va iborali ma`nolik saqlanib qolgan, go`zallik haqidagi shakllangan tushunchalarga to`lig`iroq javob berdi.

Rossoning Fontenblodagi asosiy va saqlanib qolgan yolg`iz ishi Frantsisk I ning galereyasini bezash bo`ldi. Emandan ishlangan parket, plafon, «frantsuz

namunasi» bo`yicha devorning yarmigacha etadigan qilib ishlangan panellar Rossoning rasmlari bo`yicha yog`och ustalari tomonidan bajarildi. Devorlarning yuqorgi bo`limlari dekorativ haykallar b`ilan jiyaklangan freskalar bilan bezaldi. Ularning hayron qoladigan bo`lib uzaytirilgan figuralar, juda yorqin bo`yoqlar va kompozitsiyaning chirmachitilib ketgan egma chiziqlari sababli yalpaytirilgan bo`lib ko`rinadi. Bu figuralarning tanasining yo`qligi hissi, ularni qo`shni joylashtriilgan, ko`p sonli gipsdan ishlangan detallari: kartushlari, girlyandlari – chirmatilib ketgan gullardan, gul boldoqlaridan yaproqlari bor, hajmli, deyarli avylana haykal bezash sababli ham kuchayadi. Arxitekturadagi, avval hech erda qo`llanilmagan, «frantsuz namunasi»ning, fazoviylik rangtasvirning, hajmli-realistik haykaltaroshlikning bunday bo`lib uyg`unlashtirilishi Rossoning o`zining ijodkorlik bilan o`ylab topishining mahsuli edi.

Galereya zamondoshlariga hayron qoladigan ta`sir ko`rsatdi, ko`p sonli taqlid qilishlarning kelib chiqishiga sababchi bo`ldi, va endi barokko usulida bezalgan, Luvr va Versaldagi atoqli galereyalarning «asl irmog`iga» aylandi.

Rossoga yordamga chaqirilgan Bolon`yali rassom Franchesko Primatichecho (1504-1570) ustoz o`lgandan keyin Fontenblo maktabining badiiy talablarining diktatoriga aylandi. Primatichecho, go`zallikning, o`zida noziklik va qat`iyatlik belgilarini uyg`unlashtirilgan, yangi qoidasini o`rnatib Rossoning alohida ajratib ko`rsatilgan o`tkir ta`sirchanligini bosiq va nozli tantanalilik bilan almashtirdi. Sevimli qahramon, uzun bo`yli, yosh, qiz-xudo Diana bo`ldi. Uning eng yaxshi tasvirlanishi, atoqli chiroyli va Genrix II qudratli sevgilisi Diana de Puat`e bilan bog`lagan, Luvrdagi «Diana-ovchi qiz» bo`lib hisoblanadi.

Frantsuz saroy madaniyati uchun, bir syujetni turlicha o`zgartirib ko`rsatadigan, poeziya va rangtasvirning aralashmasi juda xos bo`ldi. Bunga, Margarita Navarrskayaning «Kareta» novellasi misol bo`la oladi, novellada uning qishloq peyzajini rohotlanib tomosha qilib, qanday o`tloqlarda ot minib chopib yurganlari, dalalarda ishlayotgan oddiy odamlar bilan gaplashganlari tasvirlanadi. Uch aslzoda beka to`qaydan chiqib, o`zlarining muhabbat sababli chekayotgan

dardlarini aytadi. Ular shunday dilbarlik bilan soʻzlaydi va shunday koʻp yoshlar toʻkib, chechanlik bilan qaygulashadi, hattoki osmonni bulut qoplab, kuchli yomgʻir boshlanib ketadi va bu elegiyali sayl uzilib qoladi. [II.16,22-56]

Xuddi shu voqea Bernar Solomonning ajoyib gravyurasida ham tasvirlanadi va Primaticcho uni Genrix II ning bal oʻtkazishga maxsus zalini bezashda foydalanadi. Bu erda Primaticchoning mohir dekorativliligi oʻzining yuqori choʻqqisiga erishadi. U, engil – tantanali ayol figuralarida qayta yangraganday boʻladigan, Ovidiyning «Metamorfozalari» dan olingan syujetlaridagina foydalanib qolmadi, balki uning yoqimli peyzajlari dehqonlar mehnatining begʻam rohatliligi hissini paydo etadigan bukolik koʻrinishlaridan ham foydalanadi.

Bal oʻtkazish uchun maxsus zalni bezashda rassom haykaltaroshlik zeshadan foydalanmaydi, uning oʻrniga oltin yalatilgan bagetlardan foydalanadi, bu rangtasvirning rolini kuchaytirdi va zalning bezalishiga koʻproq darajada geometrik va yarashganlik kiritadi.

Saroy interʻerlarining rospislarida va rangtasvir polotnolarni jiyaklab turuvchi haykal bezashlarda Fontenblo maktabining oqimlik xususiyatlari aniq koʻzga tashlanadi. Birinchidan, tarixiy, mifologik va allegoriya syujetlar afzal koʻrildi. Biroq, shuning bilan birga, eski frantsuz miniatyuralarida juda keng tarqalgan, fasl dehqonlar mehnatiga bagʻishlangan koʻrinishlar ham modaga (urf) ga aylandi. Ikkinchidan, shu vaqtlargacha rantsuz rassomlarining asarlarida uchramagan, yalangʻoch ayol figuralari ham tasvirlana boshladi. Shuning bilan birga, odam tanasining tuzilishiga mos kelmaydigan boʻlib uzaytirilgan, «ilonday egrilangan» shakllar hisobidan, rangtasvir obrazlarga insonga xos boʻlgan yoqimlilikga umumiy ega boʻlmagan, tanlangan, koʻr koʻrona ishlangan aslzodalik sifat berilla boshladi. Uchinchidan, tozalangan-tanlangan, jonsiz, nozik chiroylilik haqidagi manʻeristik tushunchalarga javob beradigan, qizgʻish, koʻk, osmon koʻk, yumshoq-yashil ranglar mosliklari koʻproq foydalanila boshladi.

Frantsuz plastikasidagi Fontenblo maktabining vakili Jan Gujon (1510-1568) boʻldi. Uning eng koʻtarinki ruhdagi asari, u tomonidan Pʻer Lesko (1515-1578)

bilan birgalikda antik shaklda yaratilgan «Begunohlar fontani» bo`ldi. Fontan uchun Gujon uzaytirilgan qayishqoq figuralari yuqori cho`zilib ketgan tor plitalarning ichiga joylashtirilgan nimfalarning rel`eflarini yasadi. Ularning engil va yarashgan harakatlarini oqib turgan suvni eslatuvchi engil, gazloma bilan bezalgan tunikalar takrorlab turibdi.

Bu figuralar – shu davr qiziquvchiliklarining o`ziga xos belgisi – ular Ronsar poeziyasining obrazlari bilan bog`liq. P`er Lesko qurgan va Frantsiyaning Renessanslik uy qurish ustachiligining gultoji deb hisoblanadigan Luvrning g`arbiy fasadining haykal bezalishi Gujonning nomi bilan bog`liq. Haykal bezashlar uchinchi qavatning derazalarining jiyaklarida va rizalitlarida jamlangan. Urush va tinchlikning allegoriya figuralari kirar eshiklarning yuqorisidagi aylana derazalarni jiyaklab turibdi, xudolarning, himoyalangan qullarning va qalqonni ushlab turgan qanotli geniylarning rel`eflik tasvirlanishlarini rizalitlarning yuqorgi bo`limini bezab turibdi.

Gujon saroyning inter`erlarini ham bezashdi: ayol-xudo Diana, favnlar va favnessalar, suvinlar va itlar Genrix II bosqoldag`ining tantanali bezashlarining bir bo`limiga aylandi; Shved zalida Afina Ereyxteyonindagi haykallarga o`xshagan kariatidalar o`shlab turgan trubunani ishladi.

Gujonning estetik ideallari, o`zining barcha qobiliyatini umumlashtirilgan kamchiliksiz chiroyli obraz yaratish yo`nalishiga qaratib, birda bir portret haykal ishlamaganligidan iborat bo`lgan, uning ijodkorligining o`ziga xos farqini keltirib chiqardi. [II.47,56-87]

Arxitekturaning, rangtasvirning va haykaltaroshlikning rivojlanishi bilan bir vaqtda XV – XVI asrlarda dekorativ-amaliy badiiy san`at ham bir qancha yutuqlarga erishadi. Frantsiyaning janubida, Limojda XII asrda paydo bo`lgan emal` ishlash chiqarish san`ati yuqori yutuqqa erishadi. Biroq agar avvalari, ranglab rasmlar solingan emal` ishlab chiqarish cherkov muhtojliklariga xizmat qilgan bo`lsa, endi bu asosan fuqarolik, dunyoviy maqsadda foydalaniladigan buyumlar.

XVI avsrda yaratilgan, fayansdan ishlangan buyumlar alohida o`ziga xosligi bilan ta`riflanadi. Shu vaqtlardagi fayans ishlab chiqarish sohasida, o`zi «qishloq loyi» deb atagan fayans yaratgan Bernar Palissi (1510-1590) alohida o`rin egallaydi. Shu farfordan u qalin va og`ir salmoqli katta idishlar, tarelkalar, kosalar ishlab, ularni ko`k yoki mala-qizil fonda joylashtirilgan kaltakesaklarning, ilonlarning, chayonlarning, suv ho`kizlarning, kapalaklarning, yaproqlarining, baqanchanoqlarning rel`efli rasmlari bilan to`liq qoplaydi. Ochiq mala qizil, yashil, sarg`ish, ko`k va oq turdagi ranglar berilib Palissining ishlab chiqargan buyumlari hayron qoladigan darajada badiiy bezalgan.

Biroq, XVI asrdagi frantsuz badiiy madaniyati antik (qadimgi dunyo madaniyatining) bayramdagiday shod ko`ngilli qayta tug`ilishi bilan to`liq yakunlanib qolgan yo`q. Uning bilan bir vaqtda, hech qachon ham birato`la to`xtab qolmagan o`rta asrlik dasturlarining ham uyg`onishi oyoq qo`shib yurdi.

XVI asrning ikkinchi yarmida frantsuz Uyg`onishi badiiy san`atida gotika yo`nalish rivojlana boshladi va, cherkov qabr estaliklariga diqqat qaratgan Jermen Piloning (1535-1605) ijodida o`ziga xos ifodasini topdi. Uning dunyoshunoslik gotika «Ajal o`yinlari» da – frantsuz qabristonlarining devorlaridagi freskalarda – ifodalangan, o`rta asrlardagi u dunyodagi hayot haqida qayg`urish bilan uyg`un edi.

